

SAID AHMAD USLUBI TURK TILIDA: TARJIMADAGI BADIY BO‘YOQLAR VA ASLIGA MUVOFIQLIK MASALASI

Jurakulov Kuvonchbek Naim o‘g‘li

Tel: +998939946461; Email:

[TDSHU stajyor-o‘qituvchisi, juraqulovquvonchbekg@mail.com](mailto:juraqulovquvonchbekg@mail.com)

Har qanday badiiy asarni boshqa tilga o‘girish shunchaki so‘z almashtirish emas, balki bir madaniyatdan ikkinchisiga ko‘prik qurishdir. Ayniqsa, Said Ahmad kabi milliy koloritga boy, har bir so‘zida xalqona shira va o‘tkir piching yashiringan adib ijodini tarjima qilish tarjimondan ulkan mahorat talab etadi. Quyida biz adib asarlarining turkcha tarjimasini tahlil qilar ekanmiz, tarjimonning matni mahalliyashtirishga bo‘lgan urinishlari, muvaffaqiyatli topilmalari va ayrim o‘rinlarda muallif uslubidan chekinish holatlarini ko‘rib chiqamiz.

Eshik oldida sigareta, jevachka, «Snickers» sotib o‘tirgan kampir yoniga soch-soqoli o‘sib ketgan, belbog‘iga qilichdek pichoq osgan badxo‘r bir beso‘naqay yigit keldi.¹

– *Dukkanin önünde oturup sigara, sakız, çikolata satan ihtiyar kadının*

yanına saçı sakalı uzamış, beline kılıç gibi uzun bıçak takmış görümtüsü de endamsız, hantal, üzerinden güneşte kalmış bulaşık yıkama bezinin mideyi bulandıran kokusu gelen bir adam yaklaştı ve:²

O‘zbek tilidagi asl matnda qahramon portreti o‘ta lo‘nda, ammo o‘tkir sifatlar bilan berilgan: “*badxo‘r bir beso‘naqay yigit*”. Bu yerda «*badxo‘r*» so‘zi nafaqat yomon fe‘l-atvorni, balki kishida naftrat uyg‘otadigan, yoqimsiz qiyofani ham anglatadi; «*beso‘naqay*» esa gavdasi beo‘xshov, qo‘pol va epaqasiz ekaniga ishora

¹ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 3.

² Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 85.

qiladi. Tarjimon bu holatni turk tiliga o‘g‘irishda nafaqat so‘z tanlash, balki tasvirni kengaytirish yo‘lidan borgan: “*görüntüsü de endamsız, hantal, üzerinden güneşte kalmış bulaşık yıkama bezinin mideyi bulandıran kokusu gelen bir adam*”. Bu yerda «*endamsız*» va «*hantal*» so‘zlari «*beso ‘naqay*» ma’nosini to‘liq qoplasa-da, tarjimon matnga asl nusxada mutlaqo bo‘lmagan “*quyoshda qolgan idish yuvish latasining ko‘ngilni aynitadigan hidi keladigan*” degan o‘ta og‘ir va jirkanch detalni qo‘shgan. So‘z tanlash nuqtai nazaridan yana bir muhim jihat “*qilichdek pichoq*” o‘xshatishining tarjimasidir. O‘zbek tilidagi matnda ushbu qiyoslash turk tilida “*kılıç gibi uzun bıçak*” deb berilgan. Garchi «*kılıç gibi*» (*qilichdek*) muqobili to‘g‘ri tanlangan bo‘lsa-da, tarjimon «*uzun*» (*uzun*) sifatini qo‘shish orqali tasvirni yanada konkretlashtirgan. Shuningdek, asl nusxadagi “*yigit*” so‘zi turkchada “*adam*” (*erkak*) deb o‘g‘irilgan. O‘zbek tilida «*yigit*» so‘zi yoshga oid ma’lum bir chegarani va baquvvatlikni bildirsa, «*adam*» so‘zi ko‘proq umumiy va neytral xarakterga ega bo‘lib, qahramonning yoshiga oid bo‘yoqni biroz xiralashtirgan. Tarjimadagi eng katta kamchilik va stilistik o‘zgarish muallif uslubiga qilingan sub’ektiv aralashuvda ko‘rinadi. Said Ahmad qahramonning badxo‘rligini bitta so‘z bilan o‘quvchi tasavvuriga havola etgan bo‘lsa, tarjimon buni «*sassiq hid*» va «*jirkanch tasvirlar*» bilan ochiqlab bergan. Bu turk o‘quvchisi uchun qahramon haqida o‘ta salbiy tasavvur uyg‘otsa-da, asl matndagi badiiy nazokat va lo‘ndalikni yo‘qotib, matnni ko‘proq naturalistik, hayotiy detallarga o‘ta boy tasvirga aylantirib qo‘ygan.

– *Abetka ketdi, — dedi kampir. — Voy bolam-e, yana ichibsan-da. Munaqa qilaversang, bir kun emas, bir kun xotining seni tashlab ketadi-ya!*³

– *Öğle yemeğine çıktı, diye cevap Verdi ihtiyar kadın. Evladım, yine mi içtin? Böyle devam edersen, bugün olmasa yarın, vallahi, karın seni bırakıp gider!*⁴

³ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 4.

⁴ O‘zbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 85.

O‘zbek tilidagi asl matnda qo‘llanilgan “*Abetka ketdi*” iborasi so‘zlashuv nutqiga xos bo‘lib, rus tilidan kirib kelgan «*obed*» so‘zining o‘zbekcha talaffuz shaklidir. Tarjimada bu “*Ög̈le yemeđine ıktı*” (*Tushlik ovqatiga chiqdi*) deb o‘g‘irilgan. So‘z tanlash nuqtai nazaridan bu juda to‘g‘ri, chunki turk tilida «*abet*» so‘zining muqobili aynan tushlik vaqtini va ovqatlanishni anglatuvchi shu birikmadir. Biroq, kampirning “*Voy bolam-e*” degan xitobi turkchada shunchaki “*Evladım*” (*Farzandim*) deb berilgan. Bu yerda sezilarli emotsional yo‘qotish bor; o‘zbekcha xitobdagi o‘sha chuqur achinish, afsus va onalarga xos «*voy*» nidosi turkcha nusxada quruq murojaatga aylanib qolgan. Turk tilidagi “*Ah evladım!*” yoki “*Vah yavrum!*” kabi variantlar bu o‘rinda onaning ichki og‘rig‘ini yaxshiroq ifodalagan bo‘lar edi. Matndagi eng muvaffaqiyatli qism “*bir kun emas, bir kun*” iborasining “*bugün olmasa yarın*” (*bugun bo‘lmasa ertaga*) deb o‘g‘irilishidir. Har ikki tilda ham bu iboralar voqeaning muqarar ravishda sodir bo‘lishini bildiradi va so‘z tanlash jihatidan bir-biriga to‘liq ekvivalentdir. Shuningdek, tarjimon matnga “*vallahi*” (*vallah*) so‘zini qo‘shgan. Garchi asl nusxada bu so‘z bo‘lmasa-da, turk madaniyatida ogohlantirish va ta‘kidlash ohangini kuchaytirish uchun bunday diniy-madaniy xitoblar tez-tez ishlatiladi, bu esa tarjimani turk o‘quvchisi uchun tabiiylashtirgan.

– *Bermaydi. Tunov kuni olgan besh so‘mni zo‘rg‘a undirdim.*⁵

– *Ödemez. Önceki gün aldıđın beş somu nasıl ondan aldım, baherin var mı?*⁶

O‘zbek tilidagi asl matnda qo‘llanilgan “*Bermaydi*” fe‘li o‘ta lo‘nda va qat‘iy xulosa sifatida yangraydi. Tarjimada u “*Ödemez*” (*To‘lamaydi*) deb o‘g‘irilgan bo‘lib, bu so‘z tanlash nuqtai nazaridan vaziyatga juda mos keladi, chunki bu yerda gap shunchaki narsa berish emas, balki qarzni qaytarish haqida ketyapti. Biroq, ikkinchi gapdagi “*zo‘rg‘a undirdim*” iborasining o‘g‘irilishi tarjimada jiddiy stilistik o‘zgarishga uchragan. O‘zbek tilidagi “*undirmoq*” fe‘li qarzni yoki haqni majburlab, qiynchilik bilan qaytarib olish ma‘nosini yuklaydi. Tarjimon buni “*nasil ondan*

⁵ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 4.

⁶ Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 85.

aldim” (*undan qanday qilib oldim*) deb o‘g‘irgan va gap oxiriga “*haberin var mi?*” (*xabaring bormi?*) degan so‘roqni qo‘shgan. Bu yerda tarjimadagi asosiy kamchilik va uslubiy siljish ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi asl nusxada qahramon shunchaki o‘z boshidan o‘tgan qiyinchilikni bayon qilgan bo‘lsa, turkcha tarjimada suhbatdoshdan tasdiq so‘rash yoki unga dars berish ohangi paydo bo‘lgan. Shuningdek, o‘zbekcha matndagi “*besh so‘m*” turkchada “*beş som*” deb o‘z holicha saqlangan. Bu tanlov madaniy koloritni saqlashga xizmat qiladi, ammo turk o‘quvchisi uchun som so‘zi lira kabi tabiiy jaranglamasligi mumkin. Bundan tashqari, “zo‘rg‘a” (qiyinchilik bilan) so‘zi tarjimada tushirib qoldirilib, uning o‘rni “nasil” (qanday qilib) so‘rog‘i bilan to‘ldirilgan. Bu o‘zgarish natijasida gapning emotsional markazi «harakatning qiyinligi»dan «suhbatdoshning bexabarligi»ga ko‘chib qolgan.

O‘zing binoyidek qo‘li gul qassobsan.⁷

Ya sen nasil birisin, on elinde on marifeti olan adamsın.⁸

O‘zbek tilidagi asl matnda qo‘llanilgan “*binoyidek*” so‘zi qahramonning o‘z ishining ustasi ekanini, uning maqomi joyidaligini bildiradi. Tarjimada bu so‘z o‘rniga “*Ya sen nasil birisin*” (*Sen qanday odamsan-a*) degan hayratlanish va biroz so‘roq ostiga olish ohangi tanlangan. So‘z tanlash nuqtai nazaridan bu tarjimada ma‘noviy siljishga olib kelgan; chunki o‘zbekcha matndagi tasdiq ohangi turkcha nusxada qahramonning fe‘l-atvoridan ajablanish ohangiga aylanib qolgan. Biroq, tarjimaning eng kuchli jihati “*qo‘li gul*” iborasining o‘girilishida namoyon bo‘ladi. O‘zbek tilidagi «*qo‘li gul*» iborasi o‘z ishini nihoyatda mohirlik va san‘at darajasida bajaradigan insonga nisbatan ishlatiladi. Tarjimon bu ibora uchun turk tilidagi o‘ta muvaffaqiyatli muqobil “*on elinde on marifet*” (*o‘n qo‘lida o‘n hunar/mahorat*) variantini tanlagan. Garchi o‘zbekcha ibora «*gul*» metaforasi orqali nafosatga urg‘u bersa, turkcha ibora «*o‘n*» soni orqali mahoratning ko‘p qirraliligiga urg‘u beradi. Shunga qaramay, har ikki ibora ham kishining kasbiy mahoratiga berilgan eng yuksak baho sifatida bir-biriga funksional jihatdan to‘liq mos keladi. Tarjimadagi asosiy kamchilik matnning

⁷ Said Ahmad, Tanlangan asarlar, 3 jildlik, II jild, Hajviyalar, pyesalar, “Sharq” nashriyot-matbaa konserni Bosh tahririyati, Toshkent, 2000. –B. 4.

⁸ O‘zbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 86.

yakuniy qismida ko‘zga tashlanadi. O‘zbek tilidagi asl nusxada qahramonning aynan “qassob” ekanligi ta’kidlangan, bu esa asardagi qassoblar hayoti va ularning xulq-atvori haqidagi umumiy kontekst uchun muhim detal edi. Tarjimada esa «kasap» (*qassob*) so‘zi tushirib qoldirilib, uning o‘rniga umumiy “adamsin” (*odamsan*) so‘zi ishlatilgan. Bu detalning yo‘qolishi asarning o‘sha qismidagi ijtimoiy-maishiy rangni biroz xiralashtirgan. Xulosa qilib aytganda, tarjimon o‘zbekcha frazeologizmning turkcha eng munosib muqobilini topa olgan, biroq qahramonning kasbiga oid aniq detalni tushirib qoldirish hisobiga matnning konkretligini biroz kamaytirgan.

Xulosa qilib aytganda, tahlil qilingan parchalar tarjimonning turk tili imkoniyatlaridan keng foydalanishga intilganini ko‘rsatadi. To‘g‘ri, ayrim o‘rinlarda o‘zbekcha "voy" nidosidagi dard yoki "qassob" so‘zi kabi detallarning tushib qolishi matnning hissiy quvvatini biroz kamaytirgan bo‘lishi mumkin. Biroq "qo‘li gul" kabi frazeologizmlarning turkcha munosib muqobillarini topishi tarjimaning yutug‘idir. Eng muhimi, tarjima jarayonida muallifning lo‘nda uslubini saqlab qolish va ortiqcha naturalistik detallar bilan matnni og‘irlashtirmaslik asarning asl ruhini o‘quvchiga yetkazishning asosiy garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxari:

1. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2014. – B. 128.
2. Durmuş İ. Üslup. cilt II. – İstanbul: TDV İslam ansiklopedisi, 2012. – S. 383.
3. Huyugüzel Ö.F. Eleştiri terimler sözlüğü. – İstanbul: Dergah yayınları, 2018. – S. 518-519.
4. Salomov G‘. Tarjima nazariyasi asoslari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983. – B. 66.
5. Ochilov E. Tarjimashunoslik terminlarining izohli lug‘ati. – Toshkent, 2014. – B. 45.
6. Özbek Edebiyatından Seçme Eserler: Hikayeler (Antoloji). – Taşkent: TDŞÜ, 2025. – S. 70.